JIZZAX VILOYATI G‘ALLAOROL TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 26 - iyun 263-3-45-Q/24 G‘allaorol tumani hokimligi

G‘allaorol tumani hududidan o‘tuvchi M-39 “Toshkent-Termez” avtomobil yo‘lining 1005-1012 kilometrlari oralig‘ida 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi PQ-316-sonli “2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2024 yil 10 fevraldagi VI-51-23-3-0-K/24-sonli qarori 4-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Jizzax viloyati Ichki Ishlar boshqarmasi Jamoat xavsizligi xizmati harakati xavsizligi boshqarmasining G‘allaorol tumani hududidan o‘tuvchi M-39 “Toshkent-Termez” avtomobil yo‘lining 1005-1012 km.lari oralig‘ida 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida qaror qabul qilinishini so‘rab tuman hokimligiga 2024 yil 17 fevraldagi 10/6-380-sonli xatini inobatgaolib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan;

Qaror qilaman:

1. Jizzax viloyati Ichki Ishlar boshqarmasi Jamoat xavsizligi xizmati harakati xavsizligi boshqarmasining tuman hokimligiga 2024 yil 17 fevraldagi 10/6-380-sonli xati asos uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. G‘allaorol tuman yo‘llardan foydalanish Davlat muassasasi (Sh.Abdullaev) va G‘allaorol tumani yo‘l xarakati xavsizligi bo‘limi (E.Mamasharipov) bilan birgalikda G‘allaorol tumani hududidan o‘tuvchi M-39 “Toshkent-Termez” avtomobil yo‘lining 1005-1012 km.lari oralig‘ida barcha transport vositalarining tezlikni soatiga 70 km.dan oshirmasdan harakatlanishlarni belgilovchi 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. G‘allaorol tumani yo‘l xarakati xavsizligi bo‘limi (E.Mamasharipov) yo‘l belgilari o‘rnatilgan yo‘l qismlarida yo‘l xarakati qoidalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida kuchaytirilgan tartibda nazorat olib borilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror “G‘allaorol ovozi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamarajabov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Ж.Оқбоев**